

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

*SAMARQAND IKTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI*

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI

«BUXGALTERIYA HISOBI NAZARIYASI»  
FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN  
TOPSHIRIQLAR TO'PLAMI VA ULARNI YECHISH BO'YICHA

USLUBIY KO'RSATMALAR

*BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT O'QUV YO'NALISHIDA TA'LIM  
OLAYOTGAN TALABALAR UCHUN*

SAMARQAND – 2005

«Buxgalteriya hisobi nazariyasi» fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun topshiriqlar to‘plami va ularni yechish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar. «Buxgalteriya hisobi va audit» o‘quv yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar uchun. Samarqand, SamISI, 2004 – 76 bet.

SamISI o‘quv-uslubiy birlashmasi tomonidan tasdiqlangan va chop etishga tavsiya etilgan (2004 yil 5 fevral, 5-son bayon).

Tuzuvchilar - dotsent Urazov Komil Baxramovich  
 assistant Xudayberdiyev Nemat Umarovich  
 aspirant-tadqiqotchi, Toshnazarov Samiddin Nizamovich

### **TAQRIZCHILAR:**

Dotsent Rofeev D.R. (SamISI)  
 Dotsent Aliqulov A.I. (SamQXI)

Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasining  
 2004 yil 21 yanvardagi yig‘ilishida  
 muhokama qilingan va foydalanishga  
 tavsiya etilgan (6-son bayon)

## Amaliy mashg‘ulotda muhokama qilinadigan savollar

1. Xo‘jalik hisobi to‘g‘risida tushuncha, uning turlari va ahamiyati
2. Buxgalteriya hisobining predmeti va ob’ektlari
3. Korxona aktivlarining tasnifi va tavsifi
4. Korxona aktivlarini tashkil topish manbalarining tasnifi va tavsifi

### 1-TOPSHIRIQ

«Standart» ishlab chiqarish korxonasi 1999 yil 4 yanvarda davlat ro‘yxatidan o‘tgan. Manzilgohi: Samarqand shahri, M. Ulug‘bek ko‘chasi 95-uy. Telefon 341-818, hisob raqami – 20208000096134548001, «Asaka» bankining Samarqand bo‘limi, bank kodi – 00274, STIR – 202431902, Samarqand shahar DSI ro‘yxatida.

Korxonaning asosiy faoliyat turlari:

- Qurilish materiallarini ishlab chiqarish va sotish;
- Qurilish, qurilish-montaj ishlari, pudrat usulida ta’mirlash ishlari

Xodimlar soni – 20 kishi, shundan:

- Boshqaruv apparati – 3 kishi
- Ishchilar – 17 kishi

Korxona yagona soliq to‘lovchi hisoblanadi.

200\_\_ yil 1 yanvar holatiga korxona buxgalteriya hisobi ma’lumotlariga ko‘ra qo‘yidagi xo‘jalik mablag‘lari va ularning tashkil topish manbalariga ega:

#### 1. Asosiy vositalar

Tartib raqami	Asosiy vositaning nomi	Boshlang‘ic h qiymat	Jamlangan eskirish	Qoldiq qiymat
1	Ma’muriyat binosi	1 000 000	250 000	750 000
2	Kompyuter Pentium-III	700 000	420 000	280 000
3	Ofis mebeli va jixozlari	100 000	75 000	25 000
4	Yuk tashish mashinasi (GAZ-51)	500 000	400 000	100 000
5	Sex binosi	800 000	160 000	640 000
6	Beton qorish mashinasi (BM-TXI)	600 000	450 000	150 000
7	Beton qorish mashinasi (M-T3)	500 000	150 000	350 000
8	Boshqa ishlab chiqarish jixozlari	300 000	200 000	100 000
	Jami:	4 500 000	2 105 000	2 395 000

#### 2. Ishlab chiqarish zaxiralari

Tartib raqami	Zaxiraning nomi	O‘lchov birligi	Soni	Bahosi	Summa
1	Sement	Kub.m	49,2	25 000	1 230 000
2	Qora qum	Kub.m	50	2 000	100 000
3	Qizil qum	Kub.m	32	3 000	96 000
4	Ohak	Tonna	2	2 500	5 000
5	Qo‘lqop	Juft	50	300	15 000
6	Benzin	Litr	300	180	54 000
	Jami:				1 500 000

#### 3. Tugallanmagan ishlab chiqarish - 405000 so‘m

(«SamSuvoqova» tashkilotida bajarilayotgan ish bo‘yicha)

4. «Asaka» bankdan olingan 15 dona har biri 10000 so‘mlik aksiya -150000 so‘m

5. Kelgusi davr harajatlari (obuna puli) – 40000 so‘m

#### 6. Tayyor mahsulotlar

Tartib raqami	Zaxiraning nomi	O‘lchov birligi	Soni	Bahosi	Summa
1	Qolipli sementli g‘isht	Dona	8000	100	800 000
2	Bordyr	Dona	700	3000	2 100 000
	Jami:				2 900 000

#### 7. Debitorlik va kreditorlik qarzlar

T/ R	Tashkilot	Hujjat		Summa	
		Nº	Sana	Debet	Kredit
<b>I. Haridorlar bo‘yicha</b>					
1	Otel «Afrosiob»	145	25.11.200	300 000	
2	Lift zavod	647	15.12.200		740 000
3	Suvoqova	413	27.10.200		405 000
4	Samarqand shahar hokimligi	814	29.11.200	500 000	
5	Avtobaza № 22	315	20.10.200		595 000
	Jami			800 000	1 740 000
<b>II. Ta’mintonchilar bo‘yicha</b>					
1	Leninabadsnab	46	20.10.200	300 000	
2	Navoitsement	51	15.12.200		700 000
3	Samarqand Depo	62	27.11.200		50 000
	Jami			300 000	750 000
<b>III. Boshqa kreditorlar</b>					
1	Shahar elektrtarmog‘i	1110	31.12.200		12 860
2	Shahar gaz ta’midot	1231	31.12.200		15 000
3	Shahar telefon stansiyasi	1521	31.12.200		3 500
4	To‘lanmagan alimentlar	1010	31.12.200		15 420
5	Suvoqova	1269	31.12.200		14 080
	Jami				60 860

#### 8. Byudjet oldidagi qarzlar

Nº	Soliq turi	Summa
1	Xodimlarning daromadidan soliq	15 900
2	Yagona soliq	223 000
3	Chiqindilar uchun to‘lov	1 100
	Jami:	240 000

9. Ustav kapitali - 4000000 sum

#### 10. Rezerv kapitali

Nº	Rezerv turi	Summa

1	Qayta baholash natijasi	150 000
2	O‘tgan yillar foydasidan ajratma	300 000
	Jami:	450 000

11. Taqsimlanmagan foyda

Nº	Foyda guruhni	Summa
1	O‘tgan yillar foydasi	1 300 200
2	Hisobot yili foydasi	369 000
	Jami:	1 669 200

12. Kassadagi pul mablag‘lari – 60 so‘m

13. Hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘lari – 770000 so‘m

14. Ish haqi bo‘yicha qarzlar – 250000 so‘m

15. Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha qarzlar

Nº	Ajratma turi	Summa
1	35,0% (o‘tgan yillarda 37,3%) pensiya fondiga ajratma	90 200
2	2,5% ish haqidan pensiya fondiga ushlanma	3 250
3	1,5% ish bilan bandlik fondiga ajratma	3 050
4	0,7% oborotdan ajratma	3 500
	Jami:	100 000

Talab qilinadi:

1. «Standart» ishlab chiqarish korxonasi 200\_\_ yil 1 yanvar holatidagi mablag‘larini qo‘yidagi belgilari bo‘yicha guruhlang

- Uzoq muddatli aktivlar
- Joriy aktivlar
- Xususiy kapital (o‘z mablag‘lari)
- Majburiyatlar (jalb qilingan mablag‘lar)

2. Korxonaning aktivlari, xususiy kapitali va majburiyatlarining jami summalarini toping.

3. Korxonaning 200\_\_ yil 1 yanvar holatidagi moliyaviy ahvoliga baho bering, buning uchun qo‘yidagi ko‘rsatkichlarni hisoblang.

- a) O‘z mablag‘larining jami korxona aktivlaridagi hissasini
- b) korxona aktivlarida majburiyatlarining hissasini
- v) korxonaning to‘lov qobiliyatini

Topshiriqning 1-bandi yechimini qo‘yidagi jadval ko‘rinishida rasmiylashtiring

№	Korxona aktivlari va ularning tashkil topish manbalari	Summa			
		Uzoq muddatli aktivlar	Joriy aktivlar	Xususiy kapital	Majburiyat-lar
1	Asosiy vositalar (qoldiq qiymati)				
2	Ishlab chiqarish zahiralari				
3	Tugallanmagan ishlab chiqarish				
4	Asaka bankidan olingan aksiyalar				
5	Kelgusi davr harajatlari				
6	Tayyor mahsulot				
7	Haridorlar bo'yicha kreditorlik qarzdorlik				
8	Haridorlar bo'yicha debetorlik qarzlar				
9	Ta'minotchilar bo'yicha debetorlik qarzlar				
10	Ta'minotchilar bo'yicha kreditorlik qarzdorlik				
11	Boshqa kreditorlik qarzdorlik				
12	Byudjet oldidagi qarzdorlik				
13	Ustav kapitali				
14	Rezerv kapitali				
15	Taqsimlanmagan foyda				
16	Kassadagi pul mablag'i				
17	Hisob kitob schyotidagi pul mablag'i				
18	Ish xaqi bo'yicha qarzdorlik				
19	Ijtimoiy sug'urta to'lovlari bo'yicha qarzdorlik				
	<b>Jami:</b>				

### O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Xo'jalik hisobining mohiyati va uning ahamiyati.
2. Xo'jalik hisobining turlari va ularga tasnifi.
3. Buxgalteriya hisobi, uning turlari to'g'risida tushuncha.
4. Buxgalteriya hisobiga qo'yilgan talablar

5. Buxgalteriya hisobining funksiyalari va vazifalari.
6. Buxgalteriya hisobining davlat tamonidan boshqarish shakllari va usullari
7. Buxgalteriya hisobining predmeti va ob'ektlari.
8. Buxgalteriya hisobining metodi va unda qo'llaniladigan usullar.
9. Buxgalteriya hisobining ob'ektlari tavsifi.

### **Fikrlash uchun testlar**

1. Buxgalteriya hisobi qanday turlarga bo'linadi?
 

a) Operativ va analitik	b) Moliyaviy va boshqaruv
v) Moliyaviy va statistik	g) Boshqaruv va texnik
2. Moliyaviy hisob:
 

a) Qat'iy tartibga solinmaydigan hisob	b) Statistik hisob
v) Qat'iy tartibga solinadigan hisob	g) Majburiy bo'limgan hisob
3. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisob tartibga solinadi
 

a) Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bilan
b) Buxgalteriya hisobining milliy standartlari bilan
v) Prezident farmonlari bilan
g) Soliq Kodeksi bilan
4. Boshqaruvda buxgalteriya hisobi qanday funksiyalarni bajaradi?
 

a) Administrativ va noadministrativ funksiyalarni
b) Axborot berish va nazorat qilish
v) Axborotlarni iste'mol qilish va nazorat qilish
g) Korxona rahbarini taftish va nazorat qilish
5. Buxgalteriya hisobi boshqaruvning qaysi bo'g'inida yuritiladi?
 

a) Boshqaruvning eng yuqori bo'g'inida	b) Boshqaruvning eng quyisi bo'g'inida
v) Boshqaruvning hohlagan bo'g'inida	g) Boshqaruvning o'rta bo'g'inida
6. Xodimlarning ishga kelishi va ketishi to'g'risida ma'lumotlar
 

a) Operativ –texnik hisobda aks etadi	b) Statistika hisobida aks etadi
v) Boshqaruv hisobida aks etadi	g) Moliyaviy hisobda aks etadi
7. O'zbekiston Respublikasida quyidagi hisob turi reglamentlashtirilgan
 

a) Operativ –texnik hisob	b) Muxandislik hisobi
v) Boshqaruv hisobida	g) Moliyaviy hisob
8. Xo'jalik faoliyatini ta'min etuvchi ob'ektlarga nimalar kiradi?
 

a) Xo'jalik jarayonlari	b) Xo'jalik aktivlari
v) Xo'jalik operatsiyalari	g) Texnologik jarayonlar
9. Quyidagilarning qaysi biri buxgalteriya hisobi ob'ekti emas.

a) Ish haqi   b) Transport   v) Texnologik chizmalar   g) Kapital

10. Quyidagilarning qaysi biri buxgalteriya hisobi ob'ekti .

- |                         |                                     |
|-------------------------|-------------------------------------|
| a) Xususiy kapital      | b) Bozordagi narx                   |
| v) Texnologik chizmalar | g) Odamlar o'rtasidagi munosabatlar |

## Mavzu 2. Buxgalteriya balansi

### Amaliy mashg'ulotda muhokama qilinadigan savollar

1. Balans tushunchasi, uning turlari va ahamiyati
2. Buxgalteriya balansining tuzilmasi va tarkibiy elementlari
3. Buxgalteriya balansidagi o'zgarishlarning tiplari

### 2-TOPSHIRIQ

1-topshiriqda keltirilgan ma'lumotlar asosida «Standart» ishlab chiqarish korxonasining 200\_\_ yil 1-yanvar holatiga buxgalteriya balansini tuzing.

Topshiriq yechimini qo'yidagi jadval ko'rinishida rasmiylashtirish

### «Standart» ishlab chiqarish korxonasining 200\_\_ yil 1 yanvar holatiga BUXGALTERIYA BALANSI

AKTIV		PASSIV	
Xo'jalik mablag'ları	SUMMA	Xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbalari	SUMMA
I. Uzoq muddatli aktivlar 1. Asosiy vositalar a) boshlang'ich qiymat b) jamlangan eskirish v) qoldiq qiymat 2. Moliyaviy investitsiyalar		I. O'z mablag'larining manbalari 1. Ustav kapitali 2. Rezerv kapitali 3. Taqsimlanmagan foyda	
Jami uzoq muddatli aktivlar		Jami o'z mablag'ları manbalari	
II. Joriy aktivlar 1. Ishlab chiqarish zaxiralari 2. Tugallanmagan ishlab chiqarish 3. Kelgusi davr harajatlari 4. Tayyor mahsulot 5. Kassa 6. Hisob-kitob schyoti 7. Haridorlarning qarzları 8. Ta'minotchilarga o'tkazil- gan bo'naklar		II. Majburiyatlar 1. Ta'minotchilar oldida-gi qarzlar 2. Haridorlardan olingan bo'naklar 3. Ish haqi bo'yicha qarzlar 4. Ijtimoiy sug'urta bo'- yicha qarzlar 5. Byudjet oldidagi qarz-lar 6. Boshqa kreditorlik qarzlar	
Jami joriy aktivlar		Jami majburiyatlar	

BALANS		BALANS	
--------	--	--------	--

### 3-TOPSHIRIQ

200\_\_ yil yanvar oyida «Standart» ishlab chiqarish korxonasida qo‘yidagi xo‘jalik operatsiyalari yuz berdi

№	Hujjat		Operatsiyaning mazmuni	Summa	Balansdagi o‘zgarish tipi
	№	sana			
1	2	3	4	5	6
1	1	05.01	Hisob-kitob schyotidan ish haqi berish va alimentlarni to‘lash uchun №315496 chek bilan pul olindi va 1-son kirim kassa orderi asosida kassaga kirim qilindi	265 420	
2	1	05.01	To‘lov qaydnomasi asosida xodimlarga ish haqi tarqatildi va u 1-son chiqim kassa orderi bilan rasmiylashtirildi	200 000	
3	2	05.01	To‘lov qaydnomasi asosida alimentlar to‘landi va unga 2-son chiqim kassa orderi yozildi	15 420	
4	3	08.01	Olinmay qolingga ish haqlari deponent qilindi va alohida 3-son qaydnomaga yozildi	50 000	
5	3	08.01	Olinmay qolingga deponent ish haqi hisob-kitob schyotiga topshirildi va unga 3-son chiqim orderi yozildi	50 000	
6	5	02.01	5-son to‘lov topshiriqnomasi asosida Otel «Afrosiyob» dan debitorlik qarz kelib tushdi	300 000	
7	18	03.01	18-son to‘lov topshiriqnomasi asosida Samarqand shahar hokimligidan debitorlik qarz kelib tushdi	400 000	
8	1	05.01	1-son to‘lov topshiriqnomasi asosida pensiya fondiga 31,6% ajratma bo‘yicha kreditorlik qarz o‘tkazib berildi	90 200	
9	2	05.01	2-son to‘lov topshiriqnomasi asosida pensiya fondina 2,5% ish haqidan ushlanma bo‘yicha kreditorlik qarz o‘tkazib berildi	3 250	
10	3	05.01	3-son to‘lov topshiriqnomasi asosida ish bilan bandlik fondiga 0,9%lik ajratma bo‘yicha kreditorlik qarz o‘tkazib berildi	3 050	
11	4	05.01	4-son to‘lov topshiriqnomasi asosida Pensiya fondiga 0,7% lik oborotdan ajratma bo‘yicha kreditorlik qarz o‘tkazib berildi	3 500	
12	5	05.01	5-son to‘lov topshiriqnomasi asosida byudjetga ish haqidan ushlangan daromad solig‘i bo‘yicha kreditorlik qarz o‘tkazib berildi	15 900	

13	6	05.01	6-son to‘lov topshiriqnomasi asosida yagona soliq bo‘yicha kreditorlik qarz byudjetga o‘tkazib berildi	223 000	
14	4	10.01	4-son schyot-faktura bilan «Leninabad-snab»dan 10 tonna sement o‘tkazilgan bo‘nak hisobidan kelib tushdi	300 000	
15	7	10.01	7-son to‘lov topshiriqnomasi asosida «Samarqanddepo»ga qora qum uchun kreditorlik qarz o‘tkazib berildi	50 000	
16	1	6.01	1-son schyot-faktura bilan Liftzavodga olingen bo‘nak hisobidan qo‘yidagi mahsulotlar jo‘natildi va daromadga olindi: • Qolipli sementli g‘isht – 1000 dona = 140000 so‘mga • Bordyur – 150 dona = 600000 so‘mga	740 000	
17	13	09.01	13-son to‘lov topshiriqnomasi asosida «Samta’mirzavod» dan tayyor mahsulot olish uchun summa bo‘nak tariqasida kelib tushdi	1 000 000	
18	2	10.01	2-son schyot-faktura bilan «Samta’mirzavod» ga qo‘yidagi mahsulotlar sotildi va daromadga olindi: • Qolipli sementli g‘isht – 7000 dona	980 000	
19	8	11.01	8-son to‘lov topshiriqnomasi bilan «Samta’mirzavod» ga ortiqcha kelib tushgan bo‘nak summasi qaytarildi	20 000	
20	4	10.01	4-son schyot-faktura bilan Juma kareridan 30 kub/m qizil qum keltirildi	90 000	
21	1	30.01	Qayta ishlov dalolatnomasiga ko‘ra qolipli sementli g‘isht ishlab chiqarishga qo‘yidagi harajatlar qilindi: • Cement 20 tonna x 25000 so‘mdan • Qora qum 40 kub/m x 2000 so‘mdan • Qizil qum 56 kub/m x 3000 so‘mdan • «Suvoqova» i/ch korxonasidan schyot olindi • ishchilarga ish haqi hisoblandi • ijtimoiy sug‘urtaga ishchilar ish haqidan 33% lik ajratma qilindi, shundan: - 31,6% - pensiya fondiga - 0,9% - ish bilan bandlik fondiga - 0,5% - kasaba uyushma federatsiyasiga • «Samelektrota’mnot» korxonasidan schyot olindi • «Samarqandgazsotish» korxonasidan schyot olindi	500 000 80 000 168 000 4 000 80 000 ? ? ? ? 5 000	

				3 000	
22		30.01	Umumsex harajatlari • sarflangan benzin hisobdan chiqarildi • yaroqsiz holga kelgan qo‘lqoplar hisobdan chiqarildi (10 dona x 300 so‘mdan) • sex binosiga amortizatsiya hisoblandi • beton qorish mashinasi (BM-TX1) ga amortizatsiya hisoblandi • beton qorish mashinasi (M-T3) ga amortizatsiya hisoblandi • boshqa ishlab chiqarish jihozlariga amortizatsiya hisoblandi • sex qorovuliga – 10000 so‘m, mashina haydovchiga – 20000 so‘m ish haqi hisoblandi • qorovul va mashina haydovchi ish haqidan ijtimoiy sug‘urta (mos raivshda 31,6%, 0,9%, 0,5% ajratma qilindi)	54 000 3 000 3 333 7 500 6 250 3 750 30 000 ?	
23	1	30.01	Ishlab chiqarishdan 8000 dona sementli g‘osht omborga qabul qilindi (kalkulyatsiya bo‘yicha 1000 g‘ishtning tannarxi 123594 so‘m hisobida)	988 753	
24		30.01	Boshqaruv apparati xodimlariga ish haqi hisoblandi	45 000	
25		31.01	Ish haqidan ijtimoiy sug‘urtaga ajratma qilindi: • 31,6 % pensiya fondiga • 0,9 % ish bilan bandlik fondiga • 0,5% kasaba uyushma federatsiyasiga	?	?

26		31.01	Ish haqidan daromad solig‘i o‘rtacha 15% miqdorida ushlandi	?	
27		31.01	Ish haqidan alimentlar ushlandi	5 420	
28		31.01	Ish haqidan 2,5% pensiya fondiga ushlandi	?	
29		31.01	Ta’sischilar yig‘ilishi qaroriga asosan korxonaning o‘tgan yilgi foydasi qo‘yidagicha taqsimlandi: - ta’sischilarga divident hisobida - rezerv kapitaliga	300 000 69 000	
30		31.01	Ta’sischilardan hisoblangan divident summasidan 15%lik dividend solig‘i ushlandi.	45000	
31		31.01	Korxonaning yalpi daromadidan 0,7 %lik pensiya fondiga ajratma amalga oshirildi.	12040	

32		31.01	Sotilgan tayyor mahsulot tannarxi	1250000	
33		31.01	Korxona rahbarining 6-son buyrug‘iga bilan tuzilgan kommissiya tamonidan sexdagi tovar-moddiy boyliklar inventarizatsiyasi o‘tkazildi. Inventarizatsiya natijasida qo‘yidagilar aniqlandi. - sement bo‘yicha – 0,3 tonna kamomad - ohak bo‘yicha - 0,1 tonna ortiqcha	?	?

***Talab qilinadi:***

1. Yanvar oyida yuz bergen operatsiyalar bo‘yicha balansdagi o‘zgarishlarning tiplarini aniqlang va ularni 3-keys shartida keltirilgan jadvalning oxirgi ustunchasiga ko‘yib chiqing
2. Yanvar oyi uchun balansdagi o‘zgarishlar jadvalini \_\_-betda keltirilgan shaklda tuzing
3. Balansda yuz bergen o‘zgarishlarga baho bering, buning uchun yanvar oyining boshidagi va oxiridagi qo‘yidagi ko‘rsatkichlarni taqqoslang:
  - a) o‘z mablag‘larining jami korxona aktivlaridagi hissasini
  - b) korxona aktivlarida majburiyatlarning hissasini
  - v) korxonaning to‘lov qobiliyatini

**200 \_\_ yil yanvar oyida «Standart» ishlab chiqarish korxonasining  
balansdagi o‘zgarishlar jadvali**

AKTIV			
Xo‘jalik mablag‘lari	01.01. ga summa	Yanvar oyidagi o‘zgarishlar (+; -)	01.02. ga summa
I. Uzoq muddatli aktivlar			
1. Asosiy vositalar			
a) boshlang‘ich qiymat			
b) jamlangan eskirish			
v) qoldiq qiymat			
2. Moliyaviy investitsiyalar			
Jami uzoq muddatli aktivlar			

Jami joriy aktivlar			
II. Joriy aktivlar			
1. Ishlab chiqarish zaxiralari			
2. Tugallanmagan i/ chiqarish			
3. Asosiy ishlab chiqarish			
4. Kelgusi davr harajatlari			
5. Tayyor mahsulot			
6. Kassa			
7. Hisob-kitob schyoti			
8. Haridorlar qarzi			
9. Ta'minotchilarga o'tkazilgan bo'naklar			
10. Hisobot davr harajatlari			
11. Kamomadlar			
12. Sotish tannarxi			
<b>BALANS</b>			
<b>P A S S I V</b>			
Xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbalari	01.01. ga summa	Yanvar oyidagi o'zgarishlar (+;-)	01.02. ga summa
I. O'z mablag'lari manbalari			
1. Ustav kapitali			
2. Rezerv kapitali			
3. Taqsimlanmagan foyda			
4. Hisobot davr daromadlari			
Jami o'z mablag'lari manbalari			
II. Majburiyatlar			
1. Ta'minot. oldidagi qarzlar			
2. Haridorlardan olingan bo'naklar			
3. Ish haqi bo'yicha qarzlar			
4. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha qarzlar			

5. Byudjet oldidagi qarzlar			
6. Boshqa kreditorlik qarzlar			
7. Ta'sischilardan qarzlar			
Jami majburiyatlar			
<b>BALANS</b>			

### O‘z – o‘zini nazorat qilish uchun savollar

1. Buxgalteriya balansi, uning tarkibiy tuzilishi.
2. Buxgalteriya balansining tuzilishi va ahamiyati.
3. Xo‘jalik mablag‘larining balansda joylashuvi.
4. Xo‘jalik mablag‘lari tashkil topish manbalarining balansda joylashuvi
5. Buxgalteriya balansidagi o‘zgarishlarning tiplari.

### Fikrlar uchun testlar

1. Buxgalteriya balansining tavsifi nimadan iborat?
  - a) Buxgalteriya balansi ma’lum muddatga xo‘jalik mablag‘lari haqida ma’lumot olishga xizmat qiladi.
  - b) Buxgalteriya balansi ma’lum muddatga xo‘jalik mablag‘lari holati xaqida pul ifodasida umumlashgan ma’lumot olishga xizmat qiladi.
  - v) Buxgalteriya balansi ma’lum muddatga xo‘jalik mablag‘lari va ularning tashkil topish manbai holati xaqida pul ifodasida umumlashgan ma’lumot olishga xizmat qiladi.
  - g) Hamma javob to‘g‘ri.
2. Tuzgan balansda aktiv va passiv summalari teng kelmasa, qaysi tamoyil buzilgan hisoblanadi?
  - a) ikki yoqlama yezuv tamoyili
  - b) hisoblash tamoyili
  - v) taqqoslamalik tamoyili
  - g) daromad va harajatlarning moslik tamoyili
3. Buxgalter hisobotni belgilangan muddatdan 10 kun kechikib topshirdi, qaysi tamoyilni u buzgan hisoblanadi?
 

a) Davriylik	b) Taqqoslamalik
v) Mazmunni shakldan ustunligi	g) Uz vaktidalik
4. Buxgalter kelgusi davr uchun ijara haqini hisobot davr harajatlariga olib bordi. Qaysi tamoyilni u buzgan hisoblanadi?
 

a) Davriylik	b) Taqqoslamalik
v) Mazmunni shakldan ustunligi	g) Daromad va harajatlarning mosligi

5. Buxgalter kelib tushgan oldindan to'lov summasini sotish xajmiga oldi. Qaysi tamoyilni u buzdi.

- a) Davriylik
- b) Hisoblash
- v) Mazmunni shakldan ustunligi
- g) Daromad va harajatlarning mosligi

6. Auditorga buxgalter soliq hisob-kitoblarining birlamchi variantini tekshirishga berdi, tuzatilgan soliq hisob-kitobi borligini auditor hisob registrlari yozuvlarini taqqoslashda topib oldi. Qaysi tamoyilni buxgalter buzdi.

- a) Tejamkorlik
- b) Hisoblash
- v) Aniqlilik
- g) Muhimlik

7. Balans –bu

- a) Aktiv va majburiyatlarning tengligi
- b) Aktiv va xususiy kapitalning tengligi
- v) Bir tomonidan aktivlar, ikkinchi tomonidan xususiy kapital va majburiyatlarning ma'lum sanaga tengligi
- g) Debitorlik va kreditorlik qarzlarning tengligi

8. Bo'lishi mumkin emas:

- a) Aktiv = Xususiy kapital + Majburiyatlar
- b) Aktiv = Xususiy kapital - Majburiyatlar
- v) Xususiy kapital = Aktiv - Majburiyatlar
- g) Majburiyatlar = Hisoblangan va to'langan to'lovlar o'rtaсидаги farq

9. Haridorlardan olingan avanslar kiradi:

- a) Aktivlarga
- b) Xususiy kapitalga
- v) Majburiyatlarga
- g) Hech qaysisiga

10. Qachon aktiv xususiy kapital summasiga teng bo'lishi mumkin ?

- a) Hech qachon
- b) Korxona ta'sis etilgan kunga
- v) Korxona bankrotga uchragan kuni
- g) Korxona boshqa korxonaga qo'shilgan kun.

11. Balans aktivining 1 bo'limi = Balans passivining 1-bo'limi

- a) Hamma vaqt
- b) Hech qachon
- v) Ba'zan
- g) Erishish mumkin

12. Kassadan 100000 sum avans, 500000 sum ish haki berildi va 2000 sum kamomad chiqsa, balansda qanday o'zgarish yuz beradi.

- a) Balans 400000 so'mga kamayadi
- b) Balans 398000 so'mga kamayadi
- v) Balans 402000 so'mga kamayadi
- g) Balans 500000 so'mga kamayadi

13. Ta'minotchilardan 1000000 so'mlik material olinsa, 500000 so'mlik material ishlab chiqarishga berilsa, 10000 sumlik material kamomadga olib borilsa balans necha so'mga o'zgaradi?

- a) 1000000 so‘mga ko‘payadi      b) 510000 so‘mga kamayadi  
 v) 500000 so‘mga kamayadi      g) o‘zgarish bo‘lmaydi

14. To‘lov qaydnomasiga asosan xodimlarga ish haqi tarqatildi. Bu jarayon balansdagi o‘zgarishi tipining qaysi biriga taalluqli?

- a) 1      b) 2      v) 3      g) 4

### **Mavzu 3. Buxgalteriya hisobi schyotlari va ularga ikki yoqlama yozuv**

#### **Amaliy mashg‘ulotda muhokama qilinadigan savollar**

1. Buxgalteriya hisobi schyotlari tushunchasi, ularning turlari va tavsifi
2. Schyotlarning tarkibiy tuzilishi, ochilishi, yuritilishi va yopilishi
3. Buxgalteriya hisobi schyotlariga ikki yoqlama yozuv
4. Buxgalteriya hisobi schyotlarini ma’lumotlarini jamlash tartibi


#### **4-TOPSHIRIQ**


##### *Talab qilinadi:*

2-topshiriq yechimi natijasida tuzilgan buxgalteriya balansi asosida, shuningdek 1-topshiriq shartida keltirilgan ma’lumotlar asosida 200\_\_ yil 1 yanvar holatiga buxgalteriya hisobi schyotlarini (sintetik va analitik schyotlarni) oching.

Sintetik schyotlarni qo‘yidagi ko‘rinishda oching.

D-T 0100 «Asosiy vositalar	K-T	D-T 0200 «A/v eskirishi»	K-T
1.01 q-q 4500000			1.01 q-q 2105000





1000 «Materiallar» schyotiga analitik schyotlarni qo‘yidagi ko‘rinishida oching.

<b>Qizil qum</b>											
<b>Ohak</b>											
<b>Qo'lqop</b>											
<b>Benzin</b>											

4010 «Haridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar», 6310 «Haridor va buyurtmachilardan olingan bo'naklar», 6010 «Ta'minotchi va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar», 4310 «Ta'minotchi va pudratchilarga o'tkazilgan bo'naklar» schyotlari bo'yicha analitik schyotlarni qo'yidagi ko'rinishda oching.

Debet				Kredit			
Hujjat	Operatsiyaning mazmuni	Korr. schyot	Summa	Hujjat	Operatsiyaning mazmuni	Korr. schyot	Summa
No	Sana	No	Sana	No	Sana	No	Sana
<b>4010 «Haridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar»</b>							
<b>4310 «Ta'minotchi va pudratchilarga o'tkazilgan bo'naklar»</b>							
<b>6010 «Ta'minotchi va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar»</b>							

<b>6310 «Haridor va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar»</b>									

## 5-TOPSHIRIQ

*Talab qilinadi:*

3-topshiriqda keltirilgan yanvar oyida yuz bergan asosiy xo‘jalik jarayonlari operatsiyalari bo‘yicha ikki yoqlama yozuvlarni (buxgalteriya o‘tkazmalarini) qiling. Buxgalteriya o‘tkazmalarini 4-topshiriqda keltirilgan xo‘jalik operatsiyalarini qayd etish jurnaliga yozing.

Jurnalni qo‘yidagi ko‘rinishda yuriting va uning summasini jamlang.

**200\_\_ yil yanvar oyida yuz bergan xo‘jalik operatsiyalarini qayd etish jurnali**

№	Hujjat		Operatsyaning mazmuni	Summa	D-T	K-T
	№	Sana				
1	2	3	4	5		
1	1	05.01	Hisob-kitob schyotidan ish haqi berish va alimentlarni to‘lash uchun №315496 chek bilan pul olindi va 1-son kirim kassa orderi asosida kassaga kirim qilindi	265 420		
2	1	05.01	To‘lov qaydnomasi asosida xodimlarga ish haqi tarqatildi va u 1-son chiqim kassa orderi bilan rasmiylashtirildi	200 000		
3	2	05.01	To‘lov qaydnomasi asosida alimentlar to‘landi va unga 2-son chiqim kassa orderi yozildi	15 420		
4	3	08.01	Olinmay qolningan ish haqlari deponent qilindi va alohida 3-son qaydnomaga yozildi	50 000		
5	3	08.01	Olinmay qolningan deponent ish haqi hisob-kitob schyotiga topshirildi va unga 3-son chiqim orderi yozildi	50 000		
6	5	02.01	5-son to‘lov topshiriqnomasi asosida Otel «Afrosiyob» dan debtorlik qarz kelib tushdi	300 000		

7	18	03.01	18-son to‘lov topshiriqnomasi asosida Samarqand shahar hokimligidan debitorlik qarz kelib tushdi	400 000		
8	1	05.01	1-son to‘lov topshiriqnomasi asosida pensiya fondiga 31,6% ajratma bo‘yicha kreditorlik qarz o‘tkazib berildi	90 200		
9	2	05.01	2-son to‘lov topshiriqnomasi asosida pensiya fondina 2,5% ish haqidan ushlanma bo‘yicha kreditorlik qarz o‘tkazib berildi	3 250		
10	3	05.01	3-son to‘lov topshiriqnomasi asosida ish bilan bandlik fondiga 0,9%lik ajratma bo‘yicha kreditorlik qarz o‘tkazib berildi	3 050		
11	4	05.01	4-son to‘lov topshiriqnomasi asosida Pensiya fondiga 0,7% lik oborotdan ajratma bo‘yicha kreditorlik qarz o‘tkazib berildi	3 500		
12	5	05.01	5-son to‘lov topshiriqnomasi asosida Byudjetga ish haqidan ushlangan daromad solig‘i bo‘yicha kreditorlik qarz o‘tkazib berildi	15 900		
13	6	05.01	6-son to‘lov topshiriqnomasi asosida Yagona soliq bo‘yicha kreditorlik qarz byudjetga o‘tkazib berildi	223 000		
14	4	10.01	4-son schyot-faktura bilan «Leninabadsnab»dan 10 tonna sement o‘tkazilgan bo‘nak hisobidan kelib tushdi	300 000		
15	7	10.01	7-son to‘lov topshiriqnomasi asosida «Samarqanddepo»ga qora qum uchun kreditorlik qarz o‘tkazib berildi	50 000		
16	1	6.01	1-son schyot-faktura bilan Liftzavodga olingan bo‘nak hisobidan qo‘yidagi mahsulotlar jo‘natildi va daromadga olindi: <ul style="list-style-type: none"> <li>• Qolipli sementli g‘isht – 1000 dona = 140000 so‘mga</li> <li>• Bordyur – 150 dona = 600000 so‘mga</li> </ul>	740 000		

17	13	09.01	13-son to‘lov topshiriqnomasi asosida «Samta’mirzavod» dan tayyor mahsulot olish uchun summa bo‘nak tariqasida kelib tushdi	1 000 000		
18	2	10.01	2-son schyot-faktura bilan «Samta’mirzavod» ga qo‘yidagi mahsulotlar sotildi va daromadga olindi: • Qolipli sementli g‘isht – 7000 dona	980 000		
19	8	11.01	8-son to‘lov topshiriqnomasi bilan «Samta’mirzavod» ga ortiqcha kelib tushgan bo‘nak summasi qaytarildi	20 000		
20	4	10.01	4-son schyot-faktura bilan Juma kareridan 30 kub/m qizil qum keltirildi	90 000		
21	1	30.01	Qayta ishlov dalolatnomasiga ko‘ra qolipli sementli g‘isht ishlab chiqarishga qo‘yidagi harajatlar qilindi: • Cement 20 tonna x 25000 so‘mdan • Qora qum 40 kub/m x 2000 so‘mdan • Qizil qum 56 kub/m x 3000 so‘mdan • «Suvoqova» i/ch korxonasidan schyot olindi • ishchilarga ish haqi hisoblandi	500 000 80 000 168 000 4 000 80 000		
	1	30.01	• ijtimoiy sug‘urtaga ishchilar ish haqidan 33% lik ajratma qilindi, shundan: - 31,6% - pensiya fondiga - 0,9% - ish bilan bandlik fondiga - 0,5% - kasaba uyushma federatsiyasiga «Samelektro’ta’mnot» korxonasidan schyot olindi • «Samarqandgazsotish» korxonasidan schyot olindi	25280 720 400 5 000 3 000		

22		30.01	<p>Umumsex harajatlari</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• sarflangan benzin hisobdan chiqarildi</li> <li>• yaroqsiz holga kelgan qo'lqoplar hisobdan chiqarildi (10 dona x 300 so'mdan)</li> <li>• sex binosiga amortizatsiya hisoblandi</li> <li>• beton qorish mashinasi (BM-TX1) ga amortizatsiya hisoblandi</li> <li>• beton qorish mashinasi (M-T3) ga amortizatsiya hisoblandi</li> <li>• boshqa ishlab chiqarish jihozlariga amortizatsiya hisoblandi</li> <li>• sex qorovuliga – 10000 so'm, mashina haydovchiga – 20000 so'm ish haqi hisoblandi</li> <li>• qorovul va mashina haydovchi ish haqidan ijtimoiy sug'urta (mos raivshda 31,6%, 0,9%, 0,5%) ajratma qilindi</li> </ul>	54 000 3 000 3 333 7 500 6 250 3 750 30 000 11 160		
23	1	30.01	Ishlab chiqarishdan 8000 dona sementli g'isht omborga qabul qilindi (kalkulyatsiya bo'yicha 1000 g'ishtning tannarxi 123594 so'm hisobida)	988 753		
24		30.01	Boshqaruv apparati xodimlariga ish haqi hisoblandi	45 000		
25		31.01	<p>Ish haqidan ijtimoiy sug'urtaga ajratma qilindi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• 31,6% pensiya fondiga</li> <li>• 0,9% ish bilan bandlik fondiga</li> <li>• 0,5% kasaba uyushma federatsiyasiga</li> </ul>			
26		31.01	Ish haqidan daromad oslig'i o'rtacha 15% miqdorida ushlandi	23250		
27		31.01	Ish haqidan alimentlar ushlandi	5420		
28		31.01	Ish haqidan 2,5% pensiya fondiga ushlandi	3875		
29		31.01	<p>Ta'sischilar yig'ilishi qaroriga asosan korxonaning o'tgan yilgi foydasi qo'yidagicha taqsimlandi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ta'sischilarga divident hisobida</li> <li>- rezerv kapitaliga</li> </ul>	300 000 69 000		

30		31.01	Ta'sischilardan hisoblangan dividend summasidan 15%lik dividend solig'i ushlandi.	45000			
31		31.01	Korxonaning yalpi daromadidan 0,7%lik pensiya fondiga ajratma amalga oshirildi.	12040			
32		31.01	Sotilgan tayyor mahsulot tannarxi	1250000			
33		31.01	Korxona rahbarining 6-son buyrug'iga bilan tuzilgan kommissiya tamonidan sexdag'i tovar-moddiy boyliklar inventarizatsiyasi o'tkazildi. Inventarizatsiya natijasida qo'yidagilar aniqlandi. - Cement bo'yicha – 0,3 tonna kamomad - ohak bo'yicha - 0,1 tonna ortiqcha		7500		

## 6 - TOPSHIRIQ

### Talab qilinadi:

5-topshiriq bo'yicha tuzilgan xo'jalik operatsiyalarini qayd etish jurnali ma'lumotlari asosida yanvar oyida yuz bergan xo'jalik operatsiyalarini ochilgan sintetik va analitik schyotlarga o'tkazing. (sintetik va analitik schyotlar 4- topshiriqda ochilgan). Schyotlarni debet va kredit oborotlarini jamlang va ularning 200\_\_ yil 1 fevral holatiga qoldiqlarini hisoblang.

## 7-TOPSHIRIQ

### Talab qilinadi:

1. 200\_\_ yil yanvar oyi uchun sintetik schyotlar bo'yicha oborot qaydnomasini qo'yidagi jadval ko'rinishida tuzing.

**«Standart» ishlab chiqarish korxonasi bo'yicha 200\_\_ yil yanvar oyi uchun sintetik schyotlar bo'yicha oborot qaydnomasi**

№ schyot	Schyotning nomi	Bosh qoldiq		Oborot		Oxirgi qoldiq	
		Debet	Kredit	Debet	Kredit	Debet	Kredit
0100	Asosiy vositalar						
0200	AV eskirishi Qoldiq qiymat						
0600	Moliyaviy investitsiya						
0810	Tugallanmagan qurilish						
1000	Materiallar						
2800	Tayyor mahsulotlar						
3100	Kelgusi davr harajatlari						
4010	Haridor.olin.schyotlar						
4730	Kamomad. bo'yicha h\k						
4300	Ta'minotchilarga berilgan bo'nak						
5000	Kassa						
5110	Hisob kitob schyoti						
6010	Ta'm-tchi oldidagi qarz						
6310	Haridor olingan bo'nak						
6400	Byudjetdan qarzlar						
6500	Ij sug'urta bo'yicha qarz						
6700	Ish haqi bo'yicha h\k.lar						
6610	Ta'sischilardan qarz						
6990	Boshqa majburiyatlar						
8300	Ustav kapitali						
8530	Zahira kapitali						
8710	Hisobot davr daromadi						
8720	Taqsimlanmagan foyda						
9110	Sotish tannarxi						
9410	Sotish harajatlari						
	Jami						

Sintetik schyotlar bo‘yicha oborot qaydnomasida qo‘yidagi uchta juft tenglik bo‘lishi lozim

I- juft tenglik  $\Sigma$  3- ustun =  $\Sigma$  4- ustun (debit va kredit bo'yicha bosh qoldiqning tengligi)

II- juft tenglik  $\Sigma$  5- ustun =  $\Sigma$  6- ustun (debit va kredit bo'yicha bosh qoldiqning tengligi)

III- juft tenglik  $\Sigma$  7- ustun =  $\Sigma$  8- ustun (debit va kredit bo'yicha bosh qoldiqning tengligi)

2. 1000 «Materiallar» schyoti bo'yicha oborot qaydnomasini qo'yidagi jadval ko'rinishida tuzing

## 1000 «Materiallar» schyoti bo'yicha 200\_\_ yil yanvar oyi uchun oborot qaydnomasi

4. 4010 «Haridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar», 4310 «Ta'minotchi va pudratchilarga o'tkazilgan bo'naklar», 6010 «Ta'minotchi va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar», 6310 «Haridor va buyurtmachilardan olingan bo'naklar» schyotlar bo'yicha oborot qaydnomalarini qo'yidagi ko'rinishda alohida-alohida tuzing.

#### **4010 «Haridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar»**

№	Tashkilot nomi	Bosh qoldiq		Oborot		Oxirgi qoldiq	
		Debet	Kredit	Debet	Kredit	Debet	Kredit
1	Otel Afrosiyob						
2	Samarqand shahar xokimligi						
	Jami:						

#### **6010 «Ta'minotchi va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar»**

№	Tashkilot nomi	Bosh qoldiq		Oborot		Oxirgi qoldiq	
		Debet	Kredit	Debet	Kredit	Debet	Kredit
1	Navoiy sement						
2	Samarqanddepo						
3	Juma kar'eri						
	Jami:						

#### **6310 «Haridor va buyurtmachilardan olingan bo'naklar»**

№	Tashkilot nomi	Bosh qoldiq		Oborot		Oxirgi qoldiq	
		Debet	Kredit	Debet	Kredit	Debet	Kredit
1	Samarta'mirzavod						
2	Liftzavod						
3	Suvoqova						
4	Avtobaza						
	Jami:						

#### **6990 «Boshqa majburiyatlar»**

№	Tashkilot nomi	Bosh qoldiq		Oborot		Oxirgi qoldiq	
		Debet	Kredit	Debet	Kredit	Debet	Kredit
1	Shahar elekttarmog'i						
2	Shahargaz tarmog'i						
3	Shahar telefon stan.						
4	To'lanmagan aliment						
3	Suvoqova						
	Jami:						

O'z – o'zini nazorat qilish uchun savollar.

1. Buxgalteriya hisobi schyotlari tushunchasi, ularning turlari va tavsifi
2. Schyotlarning tarkibiy tuzilishi, ochilishi, yuritilishi va yopilishi
3. Aktiv, passiv, kontaktiv, kontpassiv va balansdan tashqari schyotlar va ularga ta’rif.
4. Buxgalteriya hisobi schyotlariga ikki yoqlama yozuv, oddiy va murakkab buxgalteriya yozuvlari.
5. Buxgalteriya hisobi schyotlarini ma'lumotlarini jamlash tartibi

### Fikrlash uchun testlar

1. Xodimlarga berilgan avanslar va qarzlarni aks ettiruvchi schyotlar –bu
 

a) Passiv schyotlar	b) Aktiv schyotlar
v) Tranzit schyotlar	g) Kontrpassiv schyotlar
2. Quyidagilarning qaysi biri tranzit schyot emas:
 

a) Daromadlar schyoti	b) Kelgusi davr harajatlari schyoti
v) Moliyaviy faoliyat bo'yicha harajatlar schyoti	g) Favqulotdagi zararlar schyoti
3. Korxonaning qarzlarini ko'rsatuvchi schyotlar balansning qaysi bo'limiga tegishli
 

a) aktivlarga	b) xususiy kapitalga	v) majburiyatlarga	g) hech qaysisiga
---------------	----------------------	--------------------	-------------------
4. Quyidagilarning qaysi biri kontraktiv schyot ?
 

a) Daromad schyotlari	b) Harajat schyotlari
v) Eskirishni hisoblash schyotlari	g) Pul mablag'lari schyotlari
5. Balans aktivining 1 bo'limi = Balans passivining 1-bo'limi
 

a) Hamma vaqt	b) Hech qachon	v) Ba'zan	g) Erishish mumkin
---------------	----------------	-----------	--------------------
6. Xususiy sotib olingan aksiyalarning hisobi schyoti
 

a) Passiv schyot	b) Aktiv schyot
v) Kontraktiv schyot	g) Kontrpassiv schyot
7. Quyidagi schyotlarning qaysi biri oxirgi qoldiqga ega bo'lmaydi?
 

a) Kassa schyoti	b) Ishlab chiqarish schyoti
v) To'lanadigan schyotlar schyoti	g) Sotish tannarxi schyoti
8. Schyotlarga ikki yoqlama yozuvni birinchi bor ilmiy asoslagan olim
 

a) Cherboni	b) Pacholi	v) Sokolov	g) Bobojonov
-------------	------------	------------	--------------
9. Schyotlarga ikki yoqlama yozuv qachon paydo bo'lgan?
 

a) XI - asrda	b) XY - asrda	v) XYII- asrda	g) XIX- asrda
---------------	---------------	----------------	---------------

10. Korxona ta'minotchi oldidagi 1000000 sumlik qarzini hisob-kitob schyotidan pul ko'chirish yo'li bilan uzdi

- a) Debet 4010 Kredit 5110 b) Debet 6990 Kredit 5110
- v) Debet 6010 Kredit 5110 g) Debet 6410 Kredit 5110

11. Quyidagilarning qaysi biri ish haqi bo'yicha to'langan avansni aks ettiradi?

- a) Debet 6710 Kredit 5010 b) Debet 6720 Kredit 5010
- v) Debet 4210 Kredit 5010 g) Debet 4220 Kredit 5010

12. 10-testdagi to'g'ri buxgalteriya yozuvi balansdagi qaysi o'zgarish tipiga kiradi?

- a) 1-tipga b) 2-tipga v) 3-tipga g) 4-tipga

13. Quyidagi murakkab o'tqazma nechta oddiy o'tqazmadan iborat? Debet 5010 Kredit 5110, 4010, 4810, 9020

- a) Bitta b) ikkita v) To'rtta g) uchta

14. Quyidagi schyotlarning qaysi birida ikki yoqlama yozuv ishlatalmaydi?

- a) Analitik schyotlarda b) Sintetik schyotlarda
- v) Tranzit schyotlarda g) Balansdan tashqari schyotlarda

## **Mavzu 4. Baholash va kalkulyatsiya**

### **Amaliy mashg'ulotda muhokama qilinadigan savollar**

1. Baholashning mohiyati, ahamiyati va usullari
2. Kalkulyatsyaning mohiyati, turlari va tuzilishi

### **8-TOPSHIRIQ**

2-topshiriq bo'yicha tuzilgan «Standart» ishlab chiqarish korxonasining buxgalteriya balansida ko'rsatilgan qo'yidagi aktivlarni baholash usullarini ko'rsating.

Keys yechimini qo'yidagi jadval ko'rinishida rasmiylashtiring

Nº	Balans moddasi	Baholash usuli
1	Asosiy vositalar	
2	Moliyaviy investitsiyalar	
3	Ishlab chiqarish zaxiralari	
4	Tugallanmagan ishlab chiqarish	
5	Tayyor mahsulotlar	
	Jami	

### **9-TOPSHIRIQ**

«Standart» ishlab chiqarish korxonasida 200\_\_ y. yanvar oyi uchun ishlab chiqarishga sarflangan materiallarning qiymatini va 1 fevral holatiga qoldig‘ini FIFO usulda hisoblab toping.

Keys yechimini qo‘yidagi jadval ko‘rinishida rasmiylashtiring.

#### SEMENT

Hujjat		Ishlab chiqarish zaxirasi nomi	O‘l. Bir.	Soni	Bahosi	Summa
Nº	Sana					
		01.01. ga qoldiq	Tn			
		Kirim				
1	10.01	Leninabadsnab sement	Tn			
		Jami kirim				
		Chiqim				
1	30.01	Ishlab chiqarishga	Tn			
	31.01	Kamomad	Tn			
		Jami chiqim				
		01.02. ga qoldiq				

#### QORA QUM

Hujjat		Ishlab chiqarish zaxirasi nomi	O‘l. Bir.	Soni	Bahosi	Summa
Nº	Sana					
		01.01. ga qoldiq	Kub/m			
		Kirim				
		Jami kirim				
		Chiqim				
1	30.01	Ishlab chiqarishga	Kub/m			
		Jami chiqim				
		01.02. ga qoldiq				

#### QIZIL QUM

Hujjat		Ishlab chiqarish zaxirasi nomi	O‘l. Bir.	Soni	Bahosi	Summa
Nº	Sana					
		01.01. ga qoldiq	Kub/m			
		Kirim				
4	10.01		Kub/m			
		Jami kirim				
		Chiqim				
1	30.01	Ishlab chiqarishga	Kub/m			
		Jami chiqim				
		01.02. ga qoldiq				

#### OHAK

Hujjat		Ishlab chiqarish zaxirasi nomi	O‘l. Bir.	Soni	Bahosi	Summa
Nº	Sana					
		01.01. ga qoldiq	tn			
		Kirim				
32	31.01	Inven.natijasida ortiqcha	tn			

	Jami kirim				
	Chiqim				
	Jami chiqim				
	01.02. ga qoldiq				

## QO'LQOP

Hujjat		Ishlab chiqarish zaxirasi nomi	O'l. Bir.	Soni	Bahosi	Summa
Nº	Sana					
		01.01. ga qoldiq	Juft			
		Kirim				
		Jami kirim				
		Chiqim				
22	30.01	Umumsex harajatlariga	Juft			
		Jami chiqim				
		01.02. ga qoldiq				

## BENZIN

Hujjat		Ishlab chiqarish zaxirasi nomi	O'l. Bir.	Soni	Bahosi	Summa
Nº	Sana					
		01.01. ga qoldiq	Litr			
		Kirim				
		Jami kirim				
		Chiqim				
1	30.01	Ishlab chiqarishga	Litr			
		Jami chiqim				
		01.02. ga qoldiq				

## 10-TOPSHIRIQ

1000 dona qoliqli g‘isht ishlab chiqarishga sarflanadigan harajatlarning qo‘yida keltirilgan me’yorlari asosida 1 dona g‘ishtning o‘rtacha normativ tannarxini kalkulyatsiya qiling.

## 1000 dona g‘ishtga ketadigan harajat me’yorlari

Harajat moddasi	O‘lchov birligi	Harajat me’yori	TMZlari-ning bahosi	Summa
1. Sement	T.	2,5		
2. Qora qum	Kub.M.	5,0		

3. Qizil qum	Kub.M.	7,0		
4. Suv	So'm	600		
5. Elektr energiyasi	So'm	1100		
6. Gaz	So'm	650		
7. Ish haqi	So'm	10000		
8. Ijtimoiy sug'urtaga ajratma (ish haqiga nisbatan)	%	33		
9. Umumsex harajatlari (materiallar qiymatiga nisbatan)	%	15		
<b>Jami</b>				
<b>1 dona g'ishtning o'rtacha normativ tannarxi</b>				

## 11-TOPSHIRIQ

«Standart» ishlab chiqarish korxonasida 200\_\_ y. yanvar oyida qolipli g'ishni ishlab chiqarish tannarxini va 1 dona g'ishtning haqiqiy tannarxini hisoblang.

Keys yechimini qo'yidagi jadval ko'rinishida rasmiylashtiring.

